



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



DISKURSNING INSTITUTSIONAL TABIATI: LINGVOPRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY YONDASHUVLAR

Tamilla Annazarova Dilshod qizi

*Oriental universiteti Tillar kafedrası o‘qituvchisi,
TDSHU Turkshunoslik oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy lingvistikada diskurs tushunchasining talqinlari V.I. Karasikning “О категориях дискурса” (2006) asari doirasida tahlil qililib, uning institutsional va shaxsiy diskurs haqidagi qarashlari N.D. Arutyunovanning diskurs konsepsiyasi bilan qiyoslandi. Tadqiqot davomida lingvopragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida diskurs kategoriyalarining (intensionalilik, interaktivlik, kontekstuallik, personallik, modallik, zamon-makon) mazmuni o‘rganildi. Karasikning diskursni kommunikativ jarayon sifatida talqin etishi va Arutyunovanning matn-ekstralingvistik omillar birligi haqidagi qarashlari o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari diskursning ijtimoiy-madaniy va lingvopragmatik tabiatini chuqur yoritishga xizmat qiladi.*


Kalit so‘zlar: *diskurs, kommunikativ jarayon, institutsional diskurs, shaxsiy diskurs, lingvopragmatika, kontekstuallik, interaktivlik, ijtimoiy rol, madaniy kod.*

Zamonaviy lingvistikada «diskurs» tushunchasi tilning statik tizimi bilan cheklanmay, uning real kommunikativ faoliyatdagi dinamik voqelanishi sifatida keng qo‘llanmoqda. Bu borada V.I. Karasikning “О категориях дискурса” (2006) asarida ilgari surilgan ilmiy qarashlar diskursni ko‘p qatlamli, murakkab va ijtimoiy jihatdan shartlangan fenomen sifatida talqin qilishda muhim ahamiyatga ega. Karasik nutq jarayonini shaxs, maqsad, vaziyat va madaniy me‘yorlar bilan bog‘liq mazmunli akt sifatida tushuntiradi. Diskursni matndan farqli ravishda harakatdagi til, ya‘ni kommunikativ jarayon sifatida ta‘riflaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi - Karasikning diskurs va uning institutsional turlari haqidagi qarashlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish, Arutyunovanning diskurs haqidagi konsepsiyasi bilan qiyoslab, ushbu yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda diskurs kategoriyalarining lingvopragmatik asoslarini ochib berishdan iborat.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Grafik sxema: Diskursning V.I. Karasikning qarashlariga ko‘ra tuzilishi

Tadqiqotda konseptual tahlil metodi yordamida Karasik va Arutyunova asarlaridagi diskurs talqinlari tahlil qilindi, qiyosiy-lingvistik yondashuv metodi qo‘llanib diskursning institutsional va shaxsiy turlari o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, har ikki olim yondashuvlarining umumiy asoslari solishtirildi, pragmatik tahlil metodi asosida diskurs kategoriyalari (intensionalilik, interaktivlik, kontekstuallik, modallik va boshqalar)ning mazmuni o‘rganildi, sotsiokulturologik tahlil asosida milliy madaniyat, ijtimoiy rol va kommunikativ me‘yorlarning diskursga ta‘siri baholandi.

Karasik diskursni matndan farqli ravishda, real muloqotning voqelanishi deb ta‘riflaydi. Uningcha, diskurs — bu nutq subyekt, adresat, vaziyat, maqsad va strategiyalar bilan bog‘langan kommunikativ jarayon. Matn esa diskursning yakuniy mahsulidir.

Diskursning tarkibiy kategoriyalari. Karasik diskursni tahlil qilishda quyidagi kategoriyalarni asosiy deb belgilaydi:

Intensionalilik (nutqning maqsadi va niyati);

Interaktivlik (muloqotdagi o‘zaro ta‘sir);

Kontekstuallik (ijtimoiy-madaniy va kommunikativ sharoit bilan bog‘liqlik);

Personallik (subyektivlik, shaxsning nutqdagi ishtiroki);

Modallik (so‘zlovchining munosabati);

Zamon va makon (nutq faoliyatining vaqti va joyi).

Bu kategoriyalar diskursning strukturaviy, semantik va pragmatik qatlamlarini tashkil etadi.

Karasik diskursni ikki asosiy guruhga ajratadi: *shaxsiy diskurs* — norasmiy, erkin, individual nutq; shaxsiy tajriba va emosional holat ustun, *institutsional diskurs* — rasmiy, ijtimoiy institutlar doirasida shakllangan nutq; ma‘lum ijtimoiy rol, me‘yor va protokollar asosida quriladi. Karasikning institutsional diskurs haqidagi konsepsiyasi Arutyunovanning kommunikativ kontekst g‘oyasining rivojlantirilgan ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Karasik diskursni keng qamrovda tahlil etish uchun quyidagi yondashuvlarni integratsiya qiladi: lingvopragmatik yondashuv — maqsad, strategiya, nutq ta'siri; sotsiolingvistik yondashuv — rol, maqom, ijtimoiy institutlar; kognitiv yondashuv — konseptual tizimlar, bilim strukturasi, madaniyatshunoslik yondashuvi — milliy me'yorlar, madaniy kodlar. Natijada diskurs til, shaxs va jamiyatning kesishgan nuqtasi sifatida ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Karasik va Arutyunovalar qarashlarining umumiy jihati shundaki, har ikkisi tilni faqat struktur birliklar tizimi sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy faoliyatning ajralmas qismi deb ko'radi. Ularning farqli jihati esa Arutyunova diskursni matn va ekstralingvistik omillar birligi sifatida konseptuallashtiradi. Karasik esa diskursni shaxs faoliyati, maqsad, rol va madaniy kodlar bilan bog'langan murakkab jarayon sifatida tizimlashtiradi.

Karasikning institutsional diskurs haqidagi tasnifi Arutyunovaning “kommunikativ vaziyatdagi matn” g'oyasiga tayanadi. Bunda nutq subyektini ma'lum ijtimoiy rolga bajaradi (masalan: domla–talaba, shifokor–bemor, siyosatchi–elektorat), kommunikatsiya esa rasmiy me'yorlar asosida amalga oshadi.

Bu ikki yondashuv integratsiyasi diskursni ijtimoiy institutlar tomonidan boshqariladigan kommunikativ tizim sifatida o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari sifatida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Diskurs matndan keng tushuncha bo'lib, tilning harakatdagi, ijtimoiy shartlangan shaklidir.
2. Karasik diskursni shaxs, maqsad, vaziyat va madaniy me'yorlar bilan bog'liq kommunikativ hodisa sifatida talqin etadi.
3. Diskursning institutsional va shaxsiy turlari Arutyunova tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kontekst konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi.
4. Diskurs kategoriyalarining (intensionalilik, interaktivlik, kontekstuallik, modallik va boshqalar) o'rganilishi uning lingvopragmatik va sotsiomadaniy tabiatini aniqlashga xizmat qiladi.
5. Karasikning to'rt yo'nalishli yondashuvi (pragmatik, sotsiologik, kognitiv, madaniy) diskursni ko'p qatlamli ijtimoiy hodisa sifatida kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Karasik va Arutyunova yondashuvlari zamonaviy diskurs tadqiqotlari uchun konseptual asos yaratadi hamda tilning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini talqin etishning samarali modelini taklif etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карасик, В. И. О КАТЕГОРИЯХ ДИСКУРСА. Волгоградский государственный педагогический университет, 2006.
2. Арутюнова, Н. Д. Дискурс. // Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: Советская энциклопедия, 1990.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



3. Karasik, V. I. Language Circle: Personality, Concepts, Discourse. — Moscow: Gnosis, 2004.
4. Кубрякова, Е. С. Языкознание. Большой энциклопедический словарь. — М.: Большая Российская энциклопедия, 1998.
5. TA Van Dijk. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. — London: SAGE Publications, 2008.
6. Fairclough, N. Discourse and Social Change. — Cambridge: Polity Press, 1992.
7. Wodak, R. Methods of Critical Discourse Analysis. — London: SAGE, 2001.
8. G'ulomov, A. Nutq madaniyati va diskurs. — Toshkent: Fan, 2021.
9. Shomaxsudov, A. Tilshunoslikka kirish. — Toshkent: O'zbekiston, 2018.

